



OLIV TA'LIM VA KORRUPSIYA... KORRUPSION JINOYATLARNING OLDINI OLIHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Umarova Nazokat Faxriddinovna

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
unazokat05@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-7151-8595>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486981>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEY WORDS

Oliy ta'lim, korrupsiya, korrupsion jinoiyatlar, jinoiyatlarning oldini olish, chora-tadbirlar, shaffoflik, hisobdorlik, axborot texnologiyalari, qonunchilik, xorijiy tajriba, muammo, yechim, strategiya, islohot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, uning turlari, kelib chiqish tarixi, oliy ta'lim tizimidagi korrupsiyaning turli ko'rinishlari, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda korrupsion jinoiyatlarning oldini olishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar, jumladan qonunchilikni takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash, hisobdorlikni kuchaytirish va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda ilg'or tajribaga ega bo'lgan xorijiy davlatlar, xususan ayrim xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitiga mos keladigan jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyani bartaraf etishning muammoli jihatlari va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Korrupsiya – bu hokimiyat yoki mansab lavozimini shaxsiy manfaatlar yo'lida suiiste'mol qilishdir. U jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Korrupsiya demokratiyaga putur yetkazadi, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va davlat boshqaruviga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Uning oqibatlari keng qamrovli bo'lib, qonun ustuvorligining buzilishiga, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Hozirgi zamon ilmiy va o'quv adabiyotlarida korrupsiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Mazkur so'zning etimologiyasiga keladigan bo'lsak, lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "sotib olish", "pora", "buzilish" degan

ma'noni bildiradi. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonunning 3-moddasida: "korrupsiya—shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"¹, — deb belgilab

¹ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonuni, 03.01.2017-yildagi O'RQ

qo'yilgan.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ilk marta korrupsiya atamasi BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi" da aks etgan, unga ko'ra korrupsiya deganda "mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlagan holda, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzib yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki bajarmaslikda ifodalanadigan harakatsizligi tushunilishi belgilangan.² Shuningdek, 1990-yil Gavanada o'tkazilgan BMT Bosh Assambleyasining korrupsiya muammolariga bag'ishlangan mintaqalararo seminarida qabul qilingan "Davlat xizmatchilar uchun xalqaro xulq-atvor kodeksi" da: "Korrupsiya – bu mansabdor shaxslarning shaxsiy yoki guruh manfaatini ko'zlab mansab lavozimni suiste'mol qilish, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan o'zlari egallab turgan xizmat vazifalaridan g'ayriqonuniy ravishda foydalanishdir"³, deb bayon etilgan.

So'nggi paytlarda korrupsion jinoyatlarning tarqalishi muammosi jahon miqyosida transmilliy jinoyat sifatida ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ba'zi siyosatchilar korrupsiyani global miqyosda inqiroz keltirib chiqaruvchi asosiy omil deb hisoblaydi. Xalqaro munosabatlardagi korrupsiyani o'rganuvchi tadqiqotchilarning fikricha, rivojlangan davlatlar korrupsiyadan foydalanib, o'zlariga yoqmagan hukumatlarni ag'darishi, o'zlariga sodiq rejimni o'rnatishi va hokimiyatga qarshi bo'lgan muxolifatni moddiy qo'llab quvvatlashi mumkin.

Korrupsiyaning shakllari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, korrupsiya shakllari juda xilma-xil bo'lib, pora berish, pora olish, o'g'irlik, tovlamachilik, qarindosh urug'chilik (nepotizm), tanish-bilishchilik (kronizm) va manfaatlar to'qnashuvi shular jumlasidandir.

Pora berish – bu bir shaxsning boshqa shaxsga uning vazifasini suiiste'mol qilish evaziga foyda olish maqsadida pul yoki boshqa qimmatliklar taklif qilishidir. Pora olish - bu biror-bir shaxsning (ko'pincha mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisi) o'z lavozimi yoki vakolatidan foydalanib, boshqa shaxsdan (yoki tashkilotdan) moddiy yoki boshqa turdagi qimmatliklarni (pul, sovg'a, xizmat, va'da va hokazo) qabul qilishidir. Bu qabul qilingan qimmatlik evaziga mansabdor shaxs o'z vazifasini bajarishda yoki bajarmaslikda pora bergan shaxsning manfaatlariga mos ravishda harakat qiladi.

O'g'irlik davlat mulkini noqonuniy ravishda o'zlashtirishni anglatadi. Tovlamachilik esa biror-bir xizmat ko'rsatish yoki qaror qabul qilish evaziga pul yoki boshqa qimmatliklar talab qilishdir. Qarindosh-urug'chilik va tanish bilishchilik (Nepotizm) - bu mansabdor shaxsning o'z qarindoshlari yoki do'stlari, tanishlariga nisbatan imtiyoz berishi, ularni ishga joylashtirishi yoki lavozimga ko'tarishidir. Bunda qarindoshlik yoki do'stlik aloqalari professionallik, malaka va tajribadan ustun qo'yiladi. Nepotizm korrupsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, u tashkilotning samaradorligini pasaytirishi, adolatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Manfaatlar to'qnashuvi

419-son <https://lex.uz/docs/-3088008>

² Ассамблеи Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией 34/169 Генеральной ООН от 17 декабря 1979 года) https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code

³ ЗХ.И.Исмоилов,Х.Н.Мелибойев. Кorrupsiya Bilan bog'liq jinoyatlarning turlari//Fundamental tadqiqotlar jurnali.2023 No12; 49-55-b.

— bu kishi yoki tashkilotda o'zining turli manfaati yoki majburiyatlari o'rtasida qarama-qarshilik vujudga keladigan holatdir. Bu ziddiyat shaxsiy foyda olish istagi va professional, axloqiy yoki yuridik majburiyatlarni bajara olmaslikka olib kelishi mumkin.

Korrupsiyaga bog'liq jinoyatlarning o'ziga xos belgilari davlat organlari, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining mansab vakolatini suiiste'mol qilishi, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishi, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilishi, hujjatlarni soxtalashtirishi, pora olishi, pora berishi va pora olish-berishda vositachilik qilishi, jinoyat yo'llari bilan topilgan daromadlarni qonuniylashtirish kabi qasddan amalga oshirilgan noqonuniy harakatlar kiradi. Korrupsiyaviy aloqalar shartli ravishda: shakliga ko'ra – ochiq va maxfiy; davomiyligiga ko'ra – qisqa va uzoq muddatli; aloqalarning xususiyatiga ko'ra – bevosita va bilvosita; tuzilishiga ko'ra – oddiy va murakkab; subyektiga ko'ra – faqat amaldorlar o'rtasidagi yoki ular bilan boshqa shaxslar o'rtasidagi aloqalarga ajratiladi.⁴

Korrupsiyaning sabablariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning sabablari ham

xilma-xildir. Ular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi. Siyosiy sabablarga hokimiyatning markazlashganligi, siyosiy tizimlarning shaffof emasligi va siyosiy javobgarlikning yetishmasligi kiradi. Iqtisodiy sabablarga esa qashshoqlik, tengsizlik, iqtisodiy o'sishning sustligi va davlat resurslarini boshqarishning samarasizligi misol bo'la oladi. Ijtimoiy sabablarga korrupsiyaga tolerant munosabat, axloqiy me'yorlarning susayishi va fuqarolik jamiyatining zaifligi kiradi.

Biz bu o'rinda ayrim rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribalarini, xususan, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurash borasidagi yondashuvlarini tahlil qilamiz va ularning dunyodagi korrupsiyalashmaganlik darajasi bo'yicha reytingiga muvofiq birma-bir yoritib chiqmoqchimiz.

Buyuk Britaniyada pora olish va korrupsiyani tartibga soluvchi asosiy qonun 2010-yilda qabul qilingan "Poraxo'rlik to'g'risida" gi Qonun bo'lib, u 2011-yil 1-iyulda kuchga kirgan. Ushbu qonun poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni juda keng ta'riflaydi va boshqa shaxsga pora berish, pora olish hamda xorijiy davlat amaldorlariga pora berish bo'yicha asosiy jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Muhimi, qonun pora olishning oldini olish bo'yicha zarur choralar mavjudligini ko'rsatishdan iborat yagona himoyaga ega bo'lgan mansabdor shaxslar uchun pora olishning oldini olish bo'yicha yangi qat'iy javobgarlikni joriy etdi. Qonun 2011-yil 1-iyuldan keyin sodir bo'lgan xatti-harakatlarga nisbatan qo'llaniladi.⁵

Mazkur qonun mamlakatdagi ilgari amal qilgan korrupsiyaga qarshi qonunchilikdan ancha qat'iyroq bo'lib, u sudyalarga nisbatan jinoiy javobgarlikni belgilashda muddati o'tganlik holatining mavjud emasligi va sudyalarda jinoiy ta'qibdan himoyalovchi immunitetning bo'lmasligi bilan ajralib turadi. Qonun bo'yicha umumiy jinoyatlar sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxs uchun jazolar 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va/yoki cheklanmagan miqdorda jarimani o'z ichiga oladi. Qonun bo'yicha aybdor deb topilgan tijorat tashkilotlari

⁴ КОРРУПЦИЯ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ЖИҲАТЛАРИ: ЖАЛОЛОВ ШЕРЗОД РУСТАМОВИЧ: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ-21-бет

⁵ <https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/bribery-and-corruption-laws-and-regulations/united-kingdom/#:~:text=The%20main%20legislation%20in%20the,bribing%20a%20foreign%20public%20official>

cheklanmagan miqdorda jarimaga tortilishi mumkin. Bundan tashqari, har qanday jarima yoki qamoq jazosi bilan bir qatorda, shaxs jinoyat yo'li bilan olingan daromadlardan (2002-yildagi "Jinoyat yo'li bilan topilgan mablag'lar to'g'risida"gi qonun (POCA)) mahrum qilinishi mumkin. Bu jinoyat jarayonida, konfiskatsiya sifatida yoki fuqaroviy jinoyat hukmisiz mulkni musodara qilish tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Firibgarlik, poraxo'rlik va pul yuvish jinoyatlari bo'yicha hukm chiqarish uchun qo'llaniladigan ko'rsatmalar 2014-yilning 1-oktabridan kuchga kirgan Firibgarlik, Pora olish va Pul yuvish jinoyatlari bo'yicha hukm chiqarish uchun qo'llaniladigan ko'rsatmalar (Ko'rsatmalar) jinoiy sudlarga pora olish va korrupsiya ishlarida shaxslar va tijorat tashkilotlariga nisbatan hukmni qanday tayinlash bo'yicha yo'riqnomalar beradi.⁶

Skandinaviya davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, barcha xorijiy mamlakatlar amaliyotida korrupsiyaning oldini olishda samarali kriminologik tadqiqotlardan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Xususan, Skandinaviya davlatlari - Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiya adliya vazirlari tomonidan 1962-yilda tashkil etilgan Kriminologiya bo'yicha Skandinaviya kengashi bu mamlakatlarda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini shakllantirishda ishtirok etishadi. Kengashning asosiy maqsadlari – ishtirokchi mamlakatlarda kriminologiya tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hukumatlarga tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu mamlakatlardagi jinoyat-huquqiy doktrinada axloqiy kategoriyalar va ijtimoiy qadriyatlar tizimi alohida o'rin tutadi. Kriminologiya bo'yicha Skandinaviya kengashi 15 ta a'zodan – har bir davlatdan uchtdan vakil, ikkitasi taniqli kriminolog va bitta adliya vazirligi vakilidan iborat. Skandinaviya mamlakatlari aholisi huquqiy ongiga ijtimoiy tenglik g'oyasi, jamoatchilik va yuridik institutlarga ishonch, shaxs darajasida har xil hodisalarga bag'rikenglik, shuningdek, "jinoyat", "jinoyatchi", "jazo" va "javobgarlik" singari huquqiy kategoriyalarga nisbatan namoyon bo'luvchi umumiy adolat hissi xos hisoblanadi. Umuman Skandinaviya mamlakatlari uchun jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari asosiy kriminogen dominant degan qarash ustunlik qiladi.⁷

Skandinaviya davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun kriminologik tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Ayniqsa, huquq sohasidagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarining kriminologiyaga oid izlanishlarni muvofiqlashtirishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, Transparency International tashkiloti e'lon qilgan korrupsiyalashganlik darajasini ko'rsatuvchi jahon reytingida Skandinaviya davlatlari eng past ko'rsatkichlarni qayd etgani ta'kidlanadi. Ushbu reytingga ko'ra, Yangi Zelandiya, Daniya, Singapur, Shvetsiya, Shveysariya va Finlandiya korrupsiyaga qarshi kurash borasida eng ijobiy natijalarga ega mamlakatlar sifatida ko'rsatilgan.

Singapur Respublikasi odatda dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Singapur 1965-yilda mustaqillikka erishishidan oldin, mamlakat korrupsiyaga botgan va huquqni muhofaza qilish tizimi zaif bo'lgan holatda edi. Qonunchilik Britaniya mustamlakachilari tomonidan o'rnatilgan bo'lsa-da, huquqni muhofaza qiluvchi

⁶ Bribery & Corruption Laws and Regulations 2025 – United Kingdom

⁷ <https://yuz.uz/uz/news/dunyo-davlatlarida-korrupsiyaviy-jinoyatlar-uchun-qanday-javobgarlik-belgilanganini-bilasizmi>

organlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish qobiliyatiga ega emas edi. Amaldorlarning aksariyati korrupsiyaga

botgan, aholining ko'pchiligi esa savodsiz bo'lib, o'z huquqlarini himoya qila olmasdi. Hukumat korrupsiyani ildizi bilan yo'q qilish zarurligini anglab, qat'iy va izchil choralari tizimini joriy etdi.

Amaldorlarning faoliyati tartibga solindi, byurokratik to'siqlar bartaraf etildi va yuqori axloqiy standartlarga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirildi.

Korrupsiya holatlarini tergov qiluvchi maxsus Byuro tashkil etilib, fuqarolarning davlat xizmatchilariga nisbatan shikoyatlarini ko'rib chiqish va zararlarni undirishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, korrupsiya uchun jinoiy jazolar kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi oshirildi, sudyalarning maoshlari sezilarli darajada ko'tarildi va ularning ijtimoiy maqomi ta'minlandi.

Singapur hukumati korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilarining ish haqini xususiy sektor darajasiga tenglashtirish, mansabdorlarning mol-mulk va qarzlari bo'yicha yillik hisobotlarini nazorat qilish, yuqori lavozimdagi amaldorlarning ma'naviy yuksakligini ta'minlash kabi tamoyillarni asos qilib oldi. 1960-yilda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi qonun bilan mustahkamlandi va Byuroga keng vakolalar berildi. Ishlar asosan Singapur Korrupsiyaviy Holatlarni Tergov qilish Byurosi (CPIB) tomonidan ko'rib chiqiladi. CPIB – bu Singapurdagi davlat va xususiy sektorlarida korrupsiyani tergov qilish va jazolash bilan shug'ullanuvchi hukumat agentligi. Transparency International tashkiloti tomonidan e'lon qilingan korrupsiyalashganlik darajasi reytingida Singapur eng past ko'rsatkichlarga ega davlatlar qatoridan joy oldi. Bu mamlakat tajribasi siyosiy iroda, samarali qonunchilik va mustaqil agentliklar yordamida korrupsiyani qisqa muddatda sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ko'rsatdi. Singapur bugungi kunda iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot darajasi bo'yicha dunyo yetakchilari safida turadi.⁸

Hozirda Respublikamizda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Shu jumladan, Senat korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirilishi to'g'risidagi qonunni ma'qullashi buning yorqin isboti hisoblanadi.

Senatorlar "Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni ma'qulladi. Endi ushbu jinoyatlarda aybdor deb topilganlar jazo muddatidan ilgari ozod qilinmaydi va yengil jazoga almashtirilmaydi.

Senatning o'ttiz to'qqizinchi yalpi majlisida "Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi. Ta'kidlanishicha, Jinoyat kodeksi "korrupsiyaga oid jinoyatlar" degan yangi atama bilan to'ldirilib, unga ko'ra kodeksning tegishli moddalarini, qismi va bandlarida nazarda tutilgan qilmishlar korrupsiyaga oid jinoyatlar deb topilishi belgilandi hamda ushbu jinoyatlar uchun jazoni kuchaytirish nazarda tutildi.

Ushbu qonun bilan Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga kiritilgan o'zgartirishlar orqali o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik, soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash uchun hukm qilingan, biroq, jinoyat oqibatida

⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/Corruption_in_Singapore

yetkazilgan zararni to'liq qoplamagan shaxslarga hamda pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish kabi normalar qo'llanilmaydi. Qonun bilan Jinoyat kodeksiga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi:

1) "korrupsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasiga ta'rif berilib, unga ko'ra quyidagi belgilarga ega 16 ta turdagi jinoyatlar bu turkumga kiritildi:

a) mansab vakolatini suiiste'mol qilib, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish (167-modda);

b) xizmat mavqeidan foydalanib, firibgarlik qilish (168-modda);

c) g'arazgo'ylik maqsadida sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi (192-11, 205, 206, 208, 209-moddalari);

d) pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (192-9, 192-10, 210, 211, 212, 213, 214, 301, 243-moddalar);

2) korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazo choralari yanada kuchaytirildi, xususan:

a) o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish (167-modda) yoki firibgarlik jinoyatlarini (168-modda) mansab mavqeini suiiste'mol qilish yoki xizmat mavqeidan foydalanib sodir etish qilmishlari tegishli moddaning og'irroq qismi bilan malakalanib, mazkur qilmishlar uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutildi (5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi);

b) javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlari uchun (210-212-moddalar) jazo choralari kuchaytirilib, 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi (15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi).

c) hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi jinoyatlari (205-209-moddalar) "g'arazgo'ylik" niyatida sodir etilgandagina korrupsiyaviy jinoyat hisoblanishi belgilanib, og'irroq jazo choralari nazarda tutildi (180 mln so'mgacha jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish);

d) nodavlat tijorat tashkilotining xizmatchisini yoki davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoxud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish yoki ularning qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi jinoyatlari uchun (192-10, 192-11, 213 va 214-moddalar) jazo choralari kuchaytirilib, ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari bilan to'ldirildi;

3) korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish muddati o'tishi va jazodan ozod qilish institutlarining qo'llanilishiga oid talablar kuchaytirildi. Jumladan:

a) korrupsiyaga oid ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish muddatlari 2 baravarga oshirilib, 10 yil etib; (boshqa turdagi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar uchun 2 yil, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun 4 yil edi).

b) korrupsiyaga oid og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslar muddat o'tishi munosabati bilan jazodan va javobgarlikdan ozod etilmasligi;

c) korrupsiyaga oid ayrim jinoyatlar bo'yicha yetkazilgan zararni to'liq qoplamagan shaxslar hamda poraxo'rlik jinoyatlarini sodir etgan shaxslar jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinmasligi va jazo yengilrog'i bilan almashtirilmasligi belgilandi.⁹

Bundan tashqari, 06.07.2021-yildagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.¹⁰

Korrupsiya eng keng tarqalgan sohalardan biri ta'lim sohasi hisoblanib, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy muammolari quyidagilar:

- Sistemaviy muammolar, jumladan boshqaruv, moliyalashtirish va nazoratdagi kamchiliklar: Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruvning yetarli darajada samarasizligi, moliyaviy resurslarning to'g'ri taqsimlanmasligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi;

- Manfaatlar to'qnashuvi : Boshqaruv organlarining ichki qarshiliklari hamda turli manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaga qarshi kurashni murakkablashtiradi;

- Huquqiy savodsizlik va huquqiy ong, huquqiy madaniyatning yetishmasligi: Aholining huquqiy ongini oshirish va muhim ma'lumotlarni ularga yetkazish yo'lida yetarli ishlar qilinmagani korrupsiyaga qarshi kurashda to'siq bo'ladi;

- Jamiyatdagi befarqlik va boshqalar: Jamiyatdagi befarqlik korrupsiyaga qarshi kurashni sustlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda quyidagi yechimlarni taklif qilamiz:

- ✓ Oliy ta'lim tizimini isloh qilish: Tizimni modernizatsiya qilish, shaffoflikni ta'minlash va samarador boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish mumkin.

- ✓ Siyosiy irodani kuchaytirish: Korrupsiyaga qarshi kurashni davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilash, bu borada qonunchilik tizimini isloh qilish va takomillashtirish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

- ✓ Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirokini ta'minlash va fuqarolar tomonidan doimiy monitoring tizimini joriy etish.

- ✓ Huquqiy ta'limni rivojlantirish: Fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, aholini huquqlari haqida xabardor qilish va huquqiy ma'rifatchilikni rivojlantirish orqali korrupsiyani kamaytirish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy poydevoriga zarar yetkazuvchi, insoniyatning davlatga bo'lgan ishonchi va umidini yo'qotuvchi, davlatning xalqaro miqyosdagi nufuzini pasaytiruvchi murakkab salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/07/corruption/>

¹⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son; 20.06.2024-y., 06/24/91/0429-son
<https://lex.uz/docs/-5495529#-5496748>

Korrupsiya har qanday jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi muammo hisoblanadi. Bu holat davlatga nisbatan ishonchni pasaytiradi, xalqaro nufuzni yo'qotadi va taraqqiyotga to'siq bo'ladi. Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashda sistemaviy kamchiliklarni bartaraf etish, huquqiy bilim va madaniyatni oshirish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Samarali choralar sifatida, korrupsiyaning ildizlariga qarshi kurashni davom ettirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ta'lim tizimini isloh qilish va yuqori axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish zarur. Faqat shundagina korrupsiyaga qarshi kurashda real natijalarga erishish va jamiyatda toza va shaffof muhitni yaratish mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni, 03.01.2017-yildagi O'RQ-419-son <https://lex.uz/docs/-3088008>
2. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией 34/169 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1979 года)//[Электронманба]:URL:https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code
3. X.I.Ismoilov, X.N.Meliboyev. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning turlari//Fundamental tadqiqotlar jurnali.2023 No12; 49-55-b.
4. КОРРУПЦИЯ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ЖИХАТЛАРИ: ЖАЛОЛОВ ШЕРЗОД РУСТАМОВИЧ: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ-21-бет
5. [https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/bribery-and-corruption-laws andregulations/unitedkingdom/#:~:text=The%20main%20legislation%20in%20th,bribing %20a%20foreign%20public%20official](https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/bribery-and-corruption-laws-andregulations/unitedkingdom/#:~:text=The%20main%20legislation%20in%20th,bribing%20a%20foreign%20public%20official)
6. Bribery & Corruption Laws and Regulations 2025 - United Kingdom
7. (Dunyo davlatlarida korrupsiyaviy jinoyatlar uchun qanday javobgarlik belgilanganini bilasizmi?) Muallif: Komil Hakimov, Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori (DSc) <https://yuz.uz/uz/news/dunyo-davlatlarida-korrupsiyaviy-jinoyatlar-uchunqandayjavobgarlik-belgilanganini-bilasizmi>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Corruption_in_Singapore
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/07/corruption/>
10. 06.07.2021-yildagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi muhosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son; 20.06.2024-y., 06/24/91/0429-son <https://lex.uz/docs/-5495529#-5496748>